

DASTLABKI TERGOVNING UMUMIY SHARTLARI VA UNING JINOYAT PROTSSESIDAGI AHAMIYATI

Fayziyev Abdurahmon Rustam o'g'li

Toshkent davlat transport universitet

Yurisprudensiya yo'nalishi 4-bosqich talabasi

Annotatsiya

Mazkur maqolada jinoyat protsessida tergovga tegishlilik institutining huquqiy mohiyati, turlari va amaliy ahamiyati tahlil qilinadi. O'zbekiston Respublikasida amalga oshirilayotgan sud-huquq islohotlari, tergov organlari vakolatlarining taqsimlanishi hamda Jinoyat-protsessual kodeksiga kiritilgan o'zgartishlarning mazmuni yoritib beriladi. Shuningdek, ayollar va bolalarga nisbatan sodir etiladigan jinoyatlarni tergov qilishda ixtisoslashuv, shaffoflik va protsessual javobgarlikni kuchaytirish zarurati asoslab beriladi. Xorijiy davlatlar tajribasi tahlil qilinib, tergov samaradorligini oshirish bo'yicha takliflar ilgari suriladi.

Kalit so'zlar: Tergovga tegishlilik, jinoyat protsessi, dastlabki tergov, sud-huquq islohotlari, ayollar va bolalar huquqlari, ixtisoslashuv, shaffoflik, protsessual nazorat.

Аннотация

В данной статье анализируется правовая сущность института подследственности в уголовном процессе, его виды и практическое значение. Рассматриваются судебно-правовые реформы, проводимые в Республике Узбекистан, распределение полномочий между следственными органами и изменения в Уголовно-процессуальном кодексе. Особое внимание уделяется необходимости специализации следственных подразделений при расследовании преступлений в отношении женщин и детей, повышению прозрачности и установлению процессуальной ответственности. На основе зарубежного опыта предлагаются меры по повышению эффективности расследования.

Ключевые слова: Подследственность, уголовный процесс, предварительное расследование, судебно-правовые реформы, права женщин и детей, специализация, прозрачность, процессуальный контроль.

Annotation

This article examines the legal nature, types, and practical significance of investigative jurisdiction in criminal proceedings. It analyzes judicial and legal reforms in the Republic of Uzbekistan, the distribution of powers among investigative bodies, and recent amendments to the Criminal Procedure Code. Special attention is given to the need for specialization in investigating crimes against women and children, increasing transparency, and strengthening procedural accountability. Based on international experience, the article proposes measures to improve the effectiveness of criminal investigations.

Keywords: Investigative jurisdiction, criminal procedure, preliminary investigation, judicial reforms, women and children's rights, specialization, transparency, procedural oversight.

Kirish

So'nggi yillarda O'zbekiston Respublikasida amalga oshirilayotgan sud-huquq islohotlari jinoyat protsessini yanada takomillashtirish, inson huquq va erkinliklarini ishonchli himoya qilish hamda adolatli sudlovni ta'minlashga qaratilgan. Ushbu islohotlar doirasida jinoyat ishlarini yuritishda ochiqlik, shaffoflik va samaradorlikni oshirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Mazkur jarayonda jinoyat ishlarini to'g'ri va o'z vaqtida vakolatli organlarga yuborish, ya'ni tergovga tegishlilik institutining samarali ishlashi muhim ahamiyat kasb etadi.

Tergovga tegishlilik jinoyat protsessida muhim o'rin tutuvchi huquqiy institut bo'lib, u jinoyat ishini qaysi tergov organi tomonidan olib borilishi lozimligini belgilaydi. Ushbu institutning to'g'ri qo'llanilishi jinoyatlarni tez va to'liq ochish, dalillarni o'z vaqtida to'plash hamda protsessual muddatlarga rioya etilishini ta'minlaydi. Aksincha, tergovga tegishlilik qoidalarining buzilishi ish yuritish muddatlarining cho'zilishiga, dalillar yo'qolishiga va jabrlanuvchilar huquqlarining buzilishiga olib kelishi mumkin.

Mazkur maqolada tergovga tegishlilik institutining huquqiy asoslari, turlari, amaliy ahamiyati hamda uni takomillashtirish yo‘nalishlari tahlil qilinadi. Shuningdek, ayollar va bolalar huquqlarini himoya qilishda tergov tizimining ixtisoslashuvini kuchaytirish bo‘yicha takliflar ilgari suriladi.

Asosiy qism

So‘nggi yillarda O‘zbekiston Respublikasida amalga oshirilgan keng ko‘lamli sud-huquq islohotlari jinoyat protsessining deyarli barcha yo‘nalishlariga sezilarli ta‘sir ko‘rsatdi. Ushbu islohotlarning asosiy yo‘nalishlari qatorida jazolarni liberallashtirish, protsessual majburlov choralari qo‘llashni cheklash, shuningdek javobgarlik va jazodan ozod qilish mexanizmlarini takomillashtirish muhim o‘rin egallaydi. Mazkur o‘zgarishlar jinoyat-huquqiy munosabatlarda insonparvarlik va liberal yondashuvni mustahkamlashga xizmat qilmoqda. Eng muhimi, islohotlar jinoyat protsessi ishtirokchilari — gumon qilinuvchi, ayblanuvchi, jabrlanuvchi hamda guvohlarning huquqlarini kengaytirishga qaratilgan. Bu esa huquqni qo‘llash amaliyotini ochiqlik va shaffoflik tamoyillari asosida yanada takomillashtirish zaruratini yuzaga keltirmoqda.

Jinoyat protsessining asosiy vazifalaridan biri — jinoyatlarni tezkor va to‘liq fosh etish, jinoyat sodir etgan shaxsga adolatli jazo tayinlash hamda aybsiz shaxsning javobgarlikka tortilishiga yo‘l qo‘ymaslikdir. Ushbu vazifalarni samarali bajarishda jinoyat ishini vakolatli organlarga to‘g‘ri va o‘z vaqtida yuborish, ya‘ni tergovga tegishlilik masalasini to‘g‘ri hal etish alohida ahamiyatga ega.

Tergovga tegishlilik instituti huquqni muhofaza qiluvchi organlar o‘rtasida vakolatlarning aniq taqsimlanishini ta‘minlaydi hamda jinoyat ishlarini yuritishda tartib va tizimni mustahkamlaydi. Ushbu institutning to‘g‘ri ishlashi huquqiy noaniqliklarning oldini olib, jinoyat protsessining barcha bosqichlarida qonuniylikni mustahkamlashga xizmat qiladi. Shu bois uning huquqiy asoslarining puxta bo‘lishi va amaliyotda to‘g‘ri qo‘llanilishi jinoyat-protsessual qonunchilikning adolatli va insonparvar tamoyillarga mos ravishda rivojlanishi uchun muhim shart hisoblanadi.

Olim X. Karimovning ta‘kidlashicha, tergovga tegishlilik institutining asosiy ahamiyati shundaki, jinoyat sodir etilganda qaysi tergov organi ushbu ish bo‘yicha tergov

olib borishi kerakligi aniq belgilanadi. Uning fikricha, tergovga tegishlilikni tartibga soluvchi normalarda Jinoyat kodeksida nazarda tutilgan barcha jinoyatlar qamrab olinishi lozim. Aks holda, muayyan jinoyat sodir etilganda uni qaysi organ tergov qilishi kerakligi borasida noaniqliklar paydo bo'lishi mumkin.¹

B.B. Murodov esa tergovga tegishlilikni jinoyatning turi va xususiyatiga qarab qaysi tergov organi ishni yuritishini belgilovchi huquqiy mexanizm sifatida izohlaydi. Uning fikricha, ushbu qoidalar jinoyat protsessida tartibni ta'minlash, turli huquqni muhofaza qiluvchi organlar vakolatlarini aniq chegaralash va ish yuritish jarayonini samarali tashkil etishda muhim ahamiyatga ega.

Yuqoridagi fikrlarni umumlashtirgan holda aytish mumkinki, tergovga tegishlilik jinoyat ishining muhim huquqiy xususiyati bo'lib, unga ko'ra muayyan jinoyat ishi bo'yicha dastlabki tergovni qaysi davlat organi yoki mansabdor shaxs olib borishi belgilab qo'yiladi. Bu institut jinoyat protsessining mustaqil bosqichi hisoblangan dastlabki tergovning to'g'ri tashkil etilishi uchun zarur shartlardan biridir.

Shu o'rinda tergovga tegishlilik tushunchasini sudlovga tegishlilikdan farqlash muhim. Sudlovga tegishlilik jinoyat ishini qaysi sud ko'rib chiqishini belgilasa, tergovga tegishlilik jinoyat ishini qaysi tergov organi tekshirishi lozimligini aniqlaydi. Demak, biri sud bosqichiga, ikkinchisi esa dastlabki tergov bosqichiga taalluqli tushunchalardir.

Jinoyat-protsessual qonunchilikda tergovga tegishlilikning bir necha turlari nazarda tutilgan bo'lib, ulardan eng asosiysi predmetli (turdosh) tegishlilik hisoblanadi. Ushbu turga ko'ra jinoyatlarning dastlabki tergovi Jinoyat kodeksining tegishli moddalariga asoslanib prokuratura, ichki ishlar organlari va davlat xavfsizlik xizmati tergovchilari o'rtasida taqsimlanadi. Jinoyatlarning qaysi organ tomonidan tergov qilinishi ularning turi va ijtimoiy xavflilik darajasidan kelib chiqib belgilanadi. Masalan, odam o'ldirish jinoyatlari prokuratura tergoviga, o'g'rilik jinoyatlari esa ichki ishlar organlari tergoviga tegishli hisoblanadi. Jinoyat-protsessual kodeksida dastlabki tergov o'tkazilishi shart bo'lgan jinoyatlar alohida moddalarda batafsil ko'rsatib o'tilgan.

¹ Шимановский В.В. Терговга тегишлиликнинг мустақил шакллари ҳақида. – Тошкент: Адолат, 1996. – 124 б.

Hududiy tegishlilik jinoyat sodir etilgan joyga qarab tergov organlarining vakolatini belgilaydi. Jinoyat-protsessual kodeksiga ko'ra, odatda jinoyat qaysi hududda sodir etilgan bo'lsa, o'sha tuman yoki shahardagi tergov organlari tomonidan tergov qilinadi. Bu qoida ishlarni tezkor ko'rib chiqish, dalillarni o'z vaqtida yig'ish va tergov samaradorligini ta'minlashga xizmat qiladi.

Maxsus tegishlilik esa jinoyat sodir etgan shaxsning maqomi yoki xizmat faoliyati bilan bog'liq bo'ladi. Masalan, harbiy xizmatchilar tomonidan sodir etilgan jinoyatlar yoki harbiy xizmat bilan bog'liq jinoyatlar harbiy prokuratura tergoviga tegishli hisoblanadi. Jinoyat-protsessual kodeksida harbiy prokuratura tergovchilari tomonidan tergov qilinadigan jinoyatlar alohida belgilab qo'yilgan. Bu yondashuv harbiy sohada yuzaga keladigan jinoyatlarni o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda malakali tergov qilish imkonini beradi.

Muqobil (alternativ) tegishlilik ayrim jinoyatlar bo'yicha dastlabki tergovni ishni qo'zg'atgan organ qaysi tizimga mansub bo'lishidan qat'i nazar, istalgan vakolatli tergovchi olib borishi mumkinligini anglatadi. Bunday yondashuv jinoyat ishlarini tezkor va samarali tergov qilishga yordam beradi. Ayrim olimlar ushbu turdagi tegishlilikni tergovga tegishlilikning mustaqil shakli sifatida baholaydilar.²

Jinoyat-protsessual kodeksiga muvofiq, tergov organlari o'rtasida jinoyat ishlarini tergov qilish vakolatlari aniq taqsimlangan. Ushbu tizimning asosiy maqsadi har bir organning o'z yo'nalishiga mos jinoyatlar bo'yicha yuqori malaka bilan ishlashini ta'minlash hamda tergov samaradorligini oshirishdan iborat.³

Prokuratura organlari, odatda, odam o'ldirish, og'ir va o'ta og'ir jinoyatlar, mansabdor shaxslar bilan bog'liq jinoyatlar, shuningdek intellektual mulk va valyuta qoidalarini buzish kabi murakkab ishlarni tergov qiladi. Bundan tashqari, ular tergov

² Jinoyat-protsessual huquq: Darslik / M.A. Rajabova tahriri ostida. – Toshkent: O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 2019. – 456 b.

³ Муродов Б. Жиноят-процессуал қонун нормаларини эркинлаштириш йўллари // Олий юридик ўқув юртларида инсон ҳуқуқлари муҳофазасини таъминловчи фанларни ўқитишнинг замонавий муаммолари: илмий-амалий конференция материаллари. – Тошкент: ЎЗМУ, 2009. – Б. 65–72.

yakunida ayblov xulosasini tasdiqlash va ishni sudga yuborish kabi muhim vazifalarni bajaradi.

Ichki ishlar organlari esa o'g'rilik, talonchilik, bosqinchilik, transport vositalarini o'g'irlash, bezorilik kabi keng tarqalgan jinoyatlarni tergov qilishga ixtisoslashgan. Ular jinoyatlarning oldini olish, tezkor fosh etish va jamoat xavfsizligini ta'minlashda muhim rol o'ynaydi.

Davlat xavfsizlik xizmati mamlakat xavfsizligiga tahdid soluvchi jinoyatlarni tergov qilishga ixtisoslashgan. Jumladan, davlatga xiyonat qilish, konstitutsiyaviy tuzumga tajovuz qilish kabi og'ir va alohida xavfli jinoyatlar aynan ushbu organ tomonidan ko'rib chiqiladi. Bunday ishlar, odatda, maxfiylik talablariga qat'iy rioya etilgan holda yuqori professional darajada olib boriladi. Shu bilan birga, harbiy prokuratura organlari harbiy xizmatni o'tash tartibiga qarshi jinoyatlar hamda harbiy xizmatchilar tomonidan sodir etilgan boshqa huquqbuzarliklarni tergov qilishga ixtisoslashgan. Bu tizimning asosiy maqsadi har bir jinoyat turi o'z sohasining malakali mutaxassislari tomonidan tergov qilinishini ta'minlashdan iborat bo'lib, natijada tergov jarayoni yanada adolatli va samarali tashkil etiladi. Tergov vakolatlarining bunday aniq taqsimlanishi har bir organ o'z faoliyat yo'nalishiga mos ish yuritishini ta'minlab, jinoyatlarni tez va samarali ochishga xizmat qiladi.

So'nggi yillarda qonunchilikka kiritilayotgan o'zgartishlar tergovga tegishlilik institutining ahamiyatini yanada kuchaytirmoqda. Xususan, 2025-yil 8-avgustda qabul qilingan O'RQ-1080-sonli Qonun bilan Jinoyat-protsessual kodeksiga ham o'zgartish va qo'shimchalar kiritildi. Mazkur o'zgartirishga ko'ra, kodeksning 345-moddasi ikkinchi qismidagi modda raqamlari kengaytirildi. Ushbu yangilik intellektual mulk huquqlarini himoya qilishni kuchaytirishga qaratilgan keng qamrovli islohotlarning bir qismi bo'lib, intellektual mulk bilan bog'liq jinoyatlar uchun javobgarlikni kuchaytirishni ko'zda tutadi.

Mazkur o'zgarish tergovga tegishlilikning predmetli tamoyili doirasida intellektual mulk sohasidagi jinoyatlar bo'yicha vakolatli organlarni aniq belgilashga xizmat qiladi. Bu

esa huquqni muhofaza qiluvchi organlarning ixtisoslashuv darajasini oshiradi, chunki intellektual mulk bilan bog‘liq jinoyatlar o‘ziga xos bilim va malakani talab etadi.⁴

Shu bilan birga, jinoyat protsessida tergovga tegishlilik qoidalarini qo‘llash amaliyotda har doim ham oddiy kechavermaydi. Ba‘zan bitta jinoyat ishida bir nechta jinoyat tarkiblari aniqlanib, ular turli tergov organlariga tegishli bo‘lishi mumkin. Bunday murakkab vaziyatlarni hal etish uchun prokurorga muhim vakolatlar berilgan. Agar turli tergov organlariga tegishli bo‘lgan jinoyat ishlari bitta ish yurituviga birlashtirilsa, prokuror tergovni og‘irroq jinoyatga tegishli bo‘lgan organ zimmasiga yuklaydi. Bu esa tergov jarayonining izchil va samarali olib borilishini ta‘minlaydi.

Agar bir nechta jinoyatlarning xususiyati va ijtimoiy xavflilik darajasi o‘zaro teng bo‘lsa, jinoyat ishi uni uzoqroq muddat davomida tergov qilayotgan organga topshiriladi. Bu qoida tergovga tegishlilik qat’iy va o‘zgarmas norma emasligini, balki amaliyotda yuzaga keladigan murakkab vaziyatlarni hal qilishga xizmat qiluvchi moslashuvchan mexanizm ekanini ko‘rsatadi. Bunday yondashuv jinoyat ishini tergov qilish jarayonining yaxlitligini saqlash bilan birga, tergov samaradorligini ham oshiradi.⁵

Amaliyotda murakkab jinoyat ishlarida turli tergov organlari vakolatiga kiradigan bir nechta jinoyat tarkiblari aniqlanishi mumkin. Agar har bir jinoyat alohida ish sifatida yuritilsa, tergov jarayoni ortiqcha cho‘zilib ketishi, dalillar o‘rtasidagi bog‘liqlik buzilishi va ishni to‘liq ochish qiyinlashishi ehtimoli ortadi. Shu sababli prokurorga jinoyat ishlarini birlashtirish vakolatining berilishi tergov jarayonini yanada samarali tashkil etishga xizmat qiladi. Natijada ish tezroq va to‘liq yakunlanadi.

Biroq ushbu vakolatning to‘g‘ri qo‘llanilishi prokurorning xolisligi, mas’uliyati va qonuniy faoliyatiga bevosita bog‘liqdir. Bu holat jinoyat protsessida nazorat va muvozanat mexanizmlarining muhimligini ko‘rsatadi. Prokuratura organlari jinoyat ishining

⁴ O‘zbekiston Respublikasining “Jabrlanuvchilarni, guvohlarni va jinoyat protsessining boshqa ishtirokchilarini himoya qilish to‘g‘risida”gi Qonuni // Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi – Lex.uz.

⁵ Maxmadiyarova X.O‘. Sudlovga tegishlilik tushunchasi va uning huquqiy mohiyati // Oriens ilmiy jurnali. – Toshkent, 2022. – №3. – B. 112–118.

qo'zg'atilishi va tergovning qonuniy olib borilishi ustidan markazlashgan nazoratni amalga oshiruvchi tizim hisoblanadi.

Tergovga tegishlilik qoidalari bevosita xotin-qizlar va bolalar huquqlariga bag'ishlangan qonunlarda alohida ko'rsatilmagan bo'lsa-da, ular bilan chambarchas bog'liqdir. Chunki ayol yoki bola jinoyat qurboni bo'lgan holatlarda ishning qaysi organga tez va to'g'ri yuborilishi tergovning sifati va tezligiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Agar jinoyat ishi noto'g'ri vakolatli organga topshirilsa yoki uzoq vaqt davomida noto'g'ri idora tomonidan yuritilsa, bu jabrlanuvchilarning huquqlari buzilishiga, protsessual muddatlarning cho'zilishiga hamda muhim dalillarning yo'qolishiga olib kelishi mumkin.

Jinoyat protsessida ishtirok etuvchi shaxslar, ayniqsa jabrlanuvchilar va guvohlar o'z huquqlarini to'liq amalga oshira olishi uchun aniq va ishonchli tizim mavjud bo'lishi zarur. Ayniqsa, xotin-qizlar va bolalar kabi himoyaga muhtoj toifadagi jabrlanuvchilar bilan bog'liq ishlarni tergov qilishda alohida e'tibor va maxsus yondashuv talab etiladi. Masalan, bolalarga nisbatan sodir etilgan jinsiy zo'ravonlik jinoyatlarini tergov qilish maxsus bilim, psixologik yondashuv va tajribani talab qiladi. Shu sababli oilaviy-maishiy zo'ravonlik yoki jinsiy jinoyatlar kabi ishlarni umumiy jinoyatlar toifasidan ajratib, og'ir jinoyatlarni tergov qilishga ixtisoslashgan organlarga topshirish maqsadga muvofiq bo'lishi mumkin.

Maxsus toifadagi jinoyatlar bo'yicha tergovga tegishlilikni aniq belgilash huquqni muhofaza qiluvchi organlarning ixtisoslashuvini kuchaytiradi. Natijada tergov sifati oshadi, jabrlanuvchilarning huquqlari yaxshiroq himoya qilinadi va umuman jinoyat protsessining samaradorligi ortadi.

O'zbekiston jinoyat-protsessual tizimini yanada takomillashtirishda xorijiy davlatlar tajribasini o'rganish ham muhim ahamiyatga ega. Masalan, Germaniyada "tergov sudyasi" instituti mavjud bo'lib, u jinoyat protsessida sud nazorati organi sifatida faoliyat yuritadi. Ushbu sudyaning asosiy vazifasi dastlabki tergov bosqichida gumon qilinuvchi yoki ayblanuvchiga nisbatan qo'llaniladigan protsessual majburlov choralarining qonuniyligi va asoslilikini nazorat qilishdan iborat.

O'zbekistonda esa tergov ustidan nazorat asosan prokuratura organlari tomonidan amalga oshiriladi. Bu ikki tizim o'rtasidagi farq ularning huquqiy yondashuvida namoyon

bo'ladi: O'zbekistonda markazlashgan prokuror nazorati ustuvor bo'lsa, Germaniyada sud nazorati orqali hokimiyatlar bo'linishi prinsipiga ko'proq urg'u beriladi. Har ikki modelning o'ziga xos afzalliklari mavjud. Prokuror nazorati tergovning tezkor va izchil olib borilishini ta'minlasa, sud nazorati gumon qilinuvchi va ayblanuvchilarning huquqlarini kuchliroq himoya qilishga xizmat qiladi.

AQSh tajribasi ham bu borada e'tiborga loyiq. AQShda Federal Tergov Byurosi (FBI) terrorizm, ekstremizm, transmilliy jinoyatlar, odam savdosi va narkotik vositalar aylanmasi kabi og'ir jinoyatlarni tergov qilishga ixtisoslashgan. O'zbekiston Bosh prokuraturasi va FBI o'rtasida hamkorlik memorandumini imzolangan bo'lib, bu transmilliy jinoyatlarga qarshi kurashishda xalqaro hamkorlikni mustahkamlashga xizmat qilmoqda.

Xorijiy tajriba shuni ko'rsatadiki, huquqni muhofaza qiluvchi organlar faoliyatida ixtisoslashuvni yanada rivojlantirish zarur. Ayniqsa, ayollar va bolalarga nisbatan sodir etiladigan jinoyatlarni tergov qilishda alohida yondashuv talab etiladi. Shu bois qonunchilik va amaliyotni takomillashtirishga qaratilgan takliflar ushbu sohada tergov samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Umumiy xulosa sifatida aytish mumkinki, ayollar va bolalarga nisbatan jinoyatlarni tergov qilish tizimini takomillashtirish uchta asosiy yo'nalishga tayanishi lozim.

Birinchidan, **ixtisoslashtirish** masalasi muhim ahamiyatga ega. Mazkur toifadagi jinoyatlarni tergov qilish uchun maxsus tayyorgarlikdan o'tgan tergovchilardan iborat ixtisoslashgan bo'linmalarni tashkil etish zarur. Bunday bo'linmalarga Jinoyat-protsessual kodeksi orqali aniq vakolatlar berilishi, ushbu turdagi jinoyatlarning tergovga tegishliligi aniq belgilanishi tergov jarayonida jabrlanuvchilarning psixologik holatini hisobga olishga imkon yaratadi.

Ikkinchidan, **protsessual oqibatlarni belgilash** zarur. Tergovga tegishlilik qoidalarining buzilishi uchun aniq huquqiy javobgarlik va protsessual oqibatlar belgilansa, tergov organlari o'z vakolatlariga yanada mas'uliyat bilan yondashadi. Bu esa jinoyat ishlarining noto'g'ri organga yuborilishi, tergov muddatlarining cho'zilishi va boshqa qonunbuzarliklarning oldini olishga yordam beradi.

Uchinchidan, **shaffoflikni oshirish** muhim vazifa hisoblanadi. Bosh prokuratura va Ichki ishlar organlari tomonidan tergov natijalari bo'yicha tizimli statistik ma'lumotlarni muntazam ravishda e'lon qilish mexanizmini joriy etish maqsadga muvofiq. Bunday ochiq hisobotlar huquqni muhofaza qilish tizimining shaffofligini kuchaytiradi, shuningdek ilmiy tadqiqotlar va amaliy tahlillar uchun mustahkam asos yaratadi.

Ushbu takliflarni amalga oshirish ayollar va bolalar huquqlarini yanada ishonchli himoya qilishga, tergov jarayonlarining samaradorligini oshirishga hamda huquqni muhofaza qilish tizimining adolatli va ochiq faoliyat yuritishini ta'minlashga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasining "Jabrlanuvchilarni, guvohlarni va jinoyat protsessining boshqa ishtirokchilarini himoya qilish to'g'risida"gi Qonuni // Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi – Lex.uz.
2. O'zbekiston Respublikasining Jinoyat-protsessual kodeksi // Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi – Lex.uz.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 23-martdagi PF-6202-son "Sud-huquq tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni // Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi – Lex.uz.
4. Дубминский А. Я. Производство предварительного расследования органами внутренних дел. – Киев: Вища школа, 1987. – 192 с.
5. Jinoyat-protsessual huquq: Darslik / M.A. Rajabova tahriri ostida. – Toshkent: O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 2019. – 456 b.
6. Maxmadiyarova X.O'. Sudlovga tegishlilik tushunchasi va uning huquqiy mohiyati // Oriens ilmiy jurnali. – Toshkent, 2022. – №3. – B. 112–118.
7. Муродов Б. Жиноят-процессуал қонун нормаларини эркинлаштириш йўллари // Олий юридик ўқув юртларида инсон ҳуқуқлари муҳофазасини таъминловчи фанларни ўқитишнинг замонавий муаммолари: илмий-амалий конференция материаллари. – Тошкент: ЎзМУ, 2009. – Б. 65–72.
8. Шимановский В.В. Терговга тегишлиликнинг мустақил шакллари ҳақида. – Тошкент: Адолат, 1996. – 124 б.

9. O‘zbekiston Respublikasining jinoyat protsessi: Darslik / Sh.T. Ikramov umumiy tahriri ostida. – 2-nashr. – Toshkent: O‘zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 2012. – 635 b.